

## TANBUR VA UNING MAQOM SAN'ATDAGI RO'LI

*Professional ta'lim ( cholǵu ijrochiligi )*

*yònalishi 3- bosqich talabasi*

*No'monova Dilbaroy Dilshodbek qizi*

*Ilmiy rahbar: Abdullayev Zuxriddin Abdujabbor ògli*

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada tanbur cholg'u asbobining kelib chiqishi, tuzilishi hamda maqom san'atidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Tanbur o'zbek mumtoz musiqa san'atining muhim cholg'ularidan biri bo'lib, ayniqsa maqom ijrochiligida yetakchi o'rin egallaydi. Tadqiqotda tanburning ijro imkoniyatlari, uning maqom yo'llarini ifodalashdagi ahamiyati, ohangdorlik xususiyatlari hamda milliy musiqa merosini saqlashdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, tanbur ijrochiligi an'analari va ularning zamonaviy musiqa madaniyatidagi o'rni ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tanbur, maqom san'ati, milliy musiqa, cholg'u asbobi, ijrochilik, mumtoz musiqa, Shashmaqom, ohang, musiqa merosi.

**ANNOTATION:** This article discusses the origin, structure, and role of the tanbur musical instrument in maqom art from a scientific perspective. The tanbur is one of the important instruments of Uzbek classical music and occupies a leading place in maqom performance. The study analyzes the performance capabilities of the tanbur, its significance in expressing maqom melodies, melodic features, and its role in preserving national musical heritage. In addition, the traditions of tanbur performance and their importance in modern musical culture are highlighted.

**Keywords:** tanbur, maqom art, national music, musical instrument, performance, classical music, Shashmaqom, melody, musical heritage.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье научно освещаются происхождение, строение и роль музыкального инструмента танбур в искусстве макома. Танбур является одним из важнейших инструментов узбекской классической музыки и занимает ведущее место в исполнении макомов. В исследовании анализируются исполнительские возможности танбура, его значение в передаче мелодий макома, особенности звучания и роль в сохранении национального музыкального наследия. Также раскрываются традиции исполнительства на танбуре и их значение в современной музыкальной культуре.

**Ключевые слова:** танбур, искусство макома, национальная музыка, музыкальный инструмент, исполнительство, классическая музыка, Шашмаком, мелодия, музыкальное наследие.

**KIRISH:** Bugungi kunda mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini izchil rivojlantirish, jahon miqyosidagi ijobiy tajriba va tendensiyalar, yutuq va natijalarni

har tomonlama chuqur o‘rganish asosida madaniyat va san‘at muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ma‘lumki, musiqiy cholg‘ular xalqlarning moddiy hamda ma‘naviy boyligidir. Chunonchi, har bir xalq o‘z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan an‘analarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning milliy ma‘naviyatiga xos yaratilgan amaliy san‘at namunalari orqali ularga mos keluvchi cholg‘u asboblari egadir.

**ASOSIY QISM:** O‘zbek musiqiy cholg‘ular olami bu xususda ma‘nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e‘tirof yetib o‘tish lozimdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma‘naviyati buyuk bo‘lsa, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir. O‘zbek xalq cholg‘ulari rang-barang tarzda, o‘ziga xos shakllangan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg‘u asboblari sifatida arslar osha rivojlanib kelgan. O‘tmish allomalari Al-Farobiy (IX) o‘zining «Katta musiqa kitobi»da, Safiuddin Urmaviy (XII) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog‘iy (XIV) «Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy» risolasida, Ahmadiy (XIV) «Sozlar munozarasi» asarida, Zaynullobiddin husayniy (XV) «Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy» risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV) «Musiqiy risola»sida, Amuliy (XVI) «Musiqiy risola»sida, Darvesh Ali Changiy (XVII) «Musiqiy risola»larida musiqiy cholg‘ularning o‘rganib tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga to‘xtalib, o‘z davrlarining musiqiy cholg‘ulari tasnifotini bayon etganlar. O‘zbek madaniy merosi musiqiy cholg‘ularga boy va ularning har biri uzoq o‘tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o‘tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko‘ra o‘zbek xalq cholg‘ulari ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga barcha an‘naviy xalq cholg‘ulari kiradi. Ikkinchi guruhga XX asr madaniy rivoji bilan bog‘liq bo‘lib takomillashgan, ya‘ni qayta ishlangan (rekonstruksiya qilingan) cholg‘ular kiradi. Ma‘lumki, musiqiy cholg‘ular va ular bilan bog‘liq namunalar xalq musiqa ijodiyotining ahamiyatga ega bo‘lgan tarkibiy qismini tashkil etadi. Hozirgi davrgacha yuzaga kelib, amaliyotda o‘z o‘rnini egallaganligi va ijrochilik amaliyotida yuqori saviyaga ko‘tarilib borayotganligi, umumbashariyat madaniyatida alohida nufuzga ega ekanligi ham bundan dalolat beradi. O‘zbek xalq cholg‘ularining har birini texnik jihatdan va tarannum darajasiga ko‘ra ilg‘or cholg‘ular darajasiga kiritish mumkin. Ularning aksariyat namunalari boy ijroviy imkoniyatlari hamda mukammal darajada shakllanganligi bilan ajralib turadi. Aynan chog‘ular tarannumining rang-barangligi (yakka, qo‘sh, ansambl va orkestr), ularning yuqori professionalizm darajasiga erishganligi hamda katta imkoniyatlarga ega ekanligini namoyon etadi. O‘zbek musiqashunosligida, oxirgi yuz yillik davomida milliy cholg‘ularni o‘rganishga bag‘ishlangan qator ilmiy amaliy tadqiqotlar olib borilgan. O‘tmishning buyuk allomalari risolalaridan tashqari, XX asrda nashr etilgan kitoblar

amaliyotda keng qo'llanilmoqda. A.Fitratning «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» (1924), V.Belyayevning «Muzikalnie instrumenti Uzbekistana» (1933), F.Karomatovning «Uzbekskaya instrumentalnaya muzika» (1972) T.S.Vizgoning «Muzikalnie instrumenti Sredney Azii» (1980) kabi kitoblari maxsus cholg'ushunoslikka bag'ishlangan. Bundan tashqari, bir qator ilmiy maqolalar, bir cholg'uning tarixi va ijrochiligiga asoslangan o'quv adabiyotlari nashr etilib, cholg'ushunoslikdagi ilmiy-tadqiqot va shu bilan birga ularni o'rganish va rivojida munosib o'rin egallab kelayotganligini qayd yetib o'tish lozimdir. Darhaqiqat o'zbek milliy cholg'ulari o'zining rang-barangligi va jozibadorligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Azal-azaldan har bir o'zbek xonadonida biror bir cholg'u asbobi mavjud bo'lgan. Hozirgi kunda ham bu an'ana davom etmoqda. Zamon musiqasi deganda biz qanday musiqani ko'z oldimizda gavdalantiramiz, tabiiyki elektron musiqa asboblardan tashkil topgan ansambl yoki kvartet, kvintetlar ko'z oldimizga keladi. Hozirgi zamon estradasiga etibor bilan nazar tashlaydigan bo'lsak, bu yo'nalishda milliy soz va milliy ovozlarning o'rni beqiyos ekanligiga guvoh bo'lamiz. Sababi estrada yo'nalishida sintez ovozlari ko'p ishlatilgani sababli, insonning qalbiga, yuragiga tabiiy ovoz kabi kirib bormaydi. Estrada yo'nalishida ijod qiladigan gurux va ansamblarga ahamiyat beradigan bo'lsak, ko'p hollarda bir dona bo'lsa ham milliy soz jo'rnavozlik qilayotganini guvohi bo'lamiz. Milliy soz nega kerak - degan savol ham bo'lishi tabiiy. Bu holatni sinchiklab qarab, mulohaza qiladigan bo'lsak, har bir ish jarayonida kontrastni ko'ramiz. Ya'ni kiyinish madaniyati bo'lsin, yoki hayotning boshqa javxalarida ham kontrast degan narsaga duch kelamiz. Masalan oq ko'ylak - qora shim va xokazo... San'atda bu narsa qay ko'rinishda bo'ladi? Bundan bir necha yillar avval ustozimiz, mohir sozanda, o'zbek milliy san'atining faxri hisoblangan inson T.Alimatov hozirgi kunni ko'rgandek gapirib o'tganlar. Ular: Yaqin kelajakda tanbur sozini xalq yaxshi ko'rib qabul qilishi uchun estrada bilan, ya'ni sintez ovozlarga ega bo'lgan sozlar bilan birgalikda kuylar ijro qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi - deganlar. Bu g'oyani bir necha yillar o'tgandan keyin ustozning bir nechta shogirdlari shunday ijroni yo'lga qo'yidilar. Ustoz T.Alimatov bu g'oyani shogirdlarga aytganlariga hozirgi kunni sarhisobi bilan hisoblaydigan bo'lsak, oradan 30 yillar chamasi o'tganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu yillar ichida ko'p ijodkor san'atkorlar ijod namunalarida tanbur sozini sevib qo'shiqlar yozuvlarida foydalandilar. Tanbur sozini aranjirovkalar orasiga mohirona qo'shish natijasida qo'shiqqa o'zgacha joziba, o'zgacha tarovat qo'shilayotganini sezish mumkin. Bu esa o'z navbatida ijod namunasini umri o'zoq bo'lishiga xizmat qiladi. Tanbur sozida qo'shiqlarga jo'rnavozlik qilishdan tashqari, salist sifatida ham ommalashib ketganini bevosita guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan: hozirgi zamonamizda radio - televideniya ko'rsatuvlariga ahamiyat beradigan bo'lsak, tanbur sozi salist sifatida ijro

qilgan ko‘p kuy va qo‘shiklardan foydalanilayotganini eshitamiz va ko‘ramiz. Albatta bu bizning sozimizga bo‘lgan e‘tibor deb ham qabul qilishimiz mumkin. Dunyo yuzini va dunyo saxnalarini ko‘rgan ko‘p san‘at vakillari o‘z ijodida doimiy ravishda milliy sozlardan unumli foydalanganliklarini bilamiz. Misol keltiradigan bo‘lsak: “Yalla” guruhi, estradamiz yuldo‘zlaridan Ravshan Nomozov, Sevara Nazarxon, “Sato” guruhi va boshqalar. Zamonaviy estrada bilan birga simfonik orkestrlar, va estrada simfonik orkestrlar ham o‘z navbatida milliy sozimizga, ya‘ni tanburga murojat qilganlarini ham bilamiz. Mirxalil Maxmudov “Navo” sifoniyasida aynan tanbur sozidan foydalanganlari fikrimizni yaqqol dalilidir. Bundan tashqari detektiv va boshqa janrdagi filmlarda ham tanbur sozidan foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin. Binobarin “If qal‘asining maxbusi” filmida ustozimiz T.Alimatov ijro qilgan asarlardan ham foydalanilgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish mumkinki 2005-yili D.Zokirov nomli milliy va evropa musiqa asbobolaridan tashkil topgan orkestrda faoliyat yuritganida M.Bafoev asarlaridan biri tanbur uchun yozilgan (orkestr jo‘rligida) “KONSERT”ni ijro qilganman. Tanbur sozi hakida chuqurroq fikr yuritadigan bo‘lsak, bu qanday soz, nega bunchalik ta‘sir kuchiga ega, - degan savollar paydo bo‘la boshlaydi. Bunday savollarga javob topish uchun biz san‘atimiz tarixiga bir nazar solishimiz kerak bo‘ladi. Tanbur so‘zini tahlil qiladigan bo‘lsak: “tan” – bu yurak, qalb ma‘nolarini anglatadib, “bur” esa – burovchi, tirnovchi, qitiqllovchi ma‘nosini beradi. SHundan ayon bo‘ladiki tanbur yurakka, qalbgga boshqa sozlarga nisbatan o‘zgacha ta‘sir kuchiga egadir. O‘zbek milliy sozlari ichida tanburni kadimdan “Sozlarning sultoni” deb atashgan. Tanbur sozi shundayin bir beqiyos musiqa asbobi ekanki xech qanday soz buning shirasini bera olmaydi va uning o‘rnini bosa olmaydi. Hoh estrada janrida bo‘lsin, hoh maqom ijrochiligida bo‘lsin tanbur sozi beqiyos va benazirdir. Tarixga yana murojat qiladigan bo‘lsak, Forobiyning musiqa hakida yozgan risolalarida ham tanbur soziga alohida e‘tirof bilan to‘xtalib o‘tganlarini ko‘rishimiz mumkin. Tanburning torlari o‘sha davrda ipdan bo‘lgan degan iqtiboslar ham mavjud. Tanbur - musiqiy cholg‘ular orasida qadimiysi va eng zabardasti hisoblanadi. Tarixiy manbalarda ham qadim zamonlardan xalqlar orasida tanbur, tamera nomli cholg‘ular keng ommalashganligi xususida ko‘p ma‘lumotlar bayon etilgan. Farobiy, Ibn Sino, Darvish Ali Changiy, Fitrat risolalarida tanburning turli (tarixiy, shakliy, tarkibiy, namunalari va ijrochilik) xususiyatlari ifodalangan. Ayni paytda tanbur maqom ijrochiligining yetakchi sozi hisoblanadi. Sozandalik - o‘zbek musiqa ijrochilik san‘atining qadimiy turlaridan biri bo‘lib, insoniyat hayoti, ma‘naviyati, ruhiyati va rivojiga beqiyos madad beruvchi omildir. Sozandalikda shu boisdan ham uzoq o‘tmishdan o‘ziga xos an‘analar vujudga kelgan. Bu an‘analar xalq orasida ardoqlanib, turli ko‘rinish, uslub va yo‘nalishlarda rivojlanib, avlodlardan-avloddarga o‘tib, o‘z ma‘naviy salohiyatini saqlab kelmokda. Boshqacha qilib aytganda, sozandalik san‘ati

- jonli jarayondir. Musiqa san'atining beqiyos va o'lmas an'alarini o'zlarida mujassam qilib, ularni zamonaga mos tarzda rivojlantirish zabardast va ulkan qalb egalari xosdir. Ularning ijodi, ijro yo'llari va talqin uslublarini o'rganish, musiqaning cheksiz sir-sino-atlaridan voqif bo'lish, madaniy boyligimizni qadrlash bilan birga yosh avlodni ona-vatanga muxabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashda kam keng imkoniyatlarni ochib beradi. Sozandalikning muqim tomonlaridan yana biri kungilda ezgu his-tuyg'ularni kamol toptirib, insonni hayotni sevishtga, ardoqlashga undashidir. Shu boisdan sozandalar azal-azaldan ma'naviyat kuychilari sifatida e'zozlanib kelingan. She'riyat mulking sultoni Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "Shodlik oshiruvchi xonanda, g'amni tarqatuvchi sozanda - bularning har ikkisiga hissiyotga berilgan kishilar va aqli dardlar jon fido qiladilar. ("Makbub ul-kulub"dan). Borbad, Noqisso, Ozodvor Changiy, Qulmuhammad Udiy kabi o'tmishda yashab o'tgan o'nlab buyuk sozandayu navozandalarning ism-shariflari tarix zarvaraqlariga bitilib, nomlari baxshilar tomonidan elga doston qilinganligi ham bejiz emas. Sozandalik sohasini ilmiy hamda amaliy o'rganish, idrok va tadqiq etish talabidan ham, murabbiydan ham o'ziga xos nazariy va amaliy bilimni talab etadi. Bu sohani yangicha an'alar bilan boyitgan holda tadqiq tahlil etish kelajak avlod uchun ham katta ahamiyatga ega. Shashmaqom tarkibidagi asarlar tanbur pardalariga atayin moslashtirilganga o'xshab judayam to'g'ri kelishi estrada ijodkorlarini ham xayron qoldiradi.

**XULOSA:** Maqom asarlarni tanburda buzilmagan holatda ijro qiladigan bo'lsak, maqomlarimiz o'z tarovati jozibasi va falsafasini o'z o'rnida ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda estrada kuy - qo'shiqlarini ham tanburga mos pardalarda ijro qiladigan bo'lsak, asar nihoyatda salobatli tus oladi va yoqimli bo'ladi. Hozirgi zamonamizda yurtimizda maqomga va milliy sozlarimizga juda kata ahamiyat berilmoqda. Shu sababdan yurtboshimiz bu masalani davlat miqyosiga olib chikdilar. Qarorlar qabul qilindi. Misol keltirib aytadagan bo'lsak, o'rta ta'lim maktablarida ham milliy musiqa asbobini o'rganish masalasi yo'lga qo'yilmoqda. Bu bizning milliy musiqamizga va milliy sozlarimizga bo'lgan katta e'tibordir. SHu ruhda, shu xarakterda ma'naviyatimizga xizmat kilishda davom etadigan bo'lsak, aytish mumkinki yurt ravnaqiga, yurt madaniyatiga biz ham o'z xissamizni qo'shishga xarakter qilgan bo'lamiz. Kelajak yosh avlodga esa o'z milliy kadriyatlarini, milliy g'ururlarini, milliy sozlarini asrab avaylashga chaqirib qolamiz. Va biz buni uddasidan chiqamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov. R. An'anaviy tanbur ijrochiligi. - T.: «Cho'lpon», 2002;
2. Alimatov T. Soz vasfi. Sharq yulduzi, 1. 1996.
3. Rajabov. "Maqomlar", T., 2006 y;
4. Y.Rajabiy. "O'zbek xalq musiqasi" I-FV j. T., 1057-1959 ;